

**CHET TILLARINI O'QITISH JARAYONIDA TALABALARDA ANALITIK
TAFAKKUR MASALASI**

**ПРОБЛЕМА РАЗВИТИЯ АНАЛИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ
СТУДЕНТОВ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ
THE ISSUE OF DEVELOPING ANALYTICAL THINKING OF STUDENTS
IN THE PROCESS OF TEACHING FOREIGN LANGUAGES**

Qurbonova Baxtixon Qo'chqarbayevna

Farg'ona davlat universiteti, magistratura bo'limi dekani,

Pedagogika fanlari doktori, professor.

Nigmatova Nozimaxon Ulug'bek qizi

Farg'ona davlat universiteti, lingvistika: ingliz tili mutaxassisligi magistri

ORCID 0009-0002-0552-4068

comrehensible@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada chet tillarini o'qitish jarayonida talabalarda analitik tafakkurni rivojlantirishning amaliy-texnologik tizimi, analitik o'qish talabalarda analitik tafakkurni rivojlantirish omili ekanligi hamda talabalarda analitik tafakkurni takomillashtirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari va metodikasi yoritib berilgan.

Аннотация

В статье рассматривается практико-технологическая система развития аналитического мышления студентов в процессе обучения иностранным языкам, рассматривается тот факт, что аналитическое чтение является фактором развития аналитического мышления студентов, а также педагогико-психологические особенности и методика совершенствования аналитического мышления студентов.

Abstract

The article examines the practical and technological system of developing students' analytical thinking in the process of learning foreign languages, examines the

fact that analytical reading is a factor in the development of students' analytical thinking, as well as the pedagogical and psychological characteristics and methods of improving students' analytical thinking.

Kalit soʻzlar: *analitik tafakkur, pedagogik strategiya, taktika, didaktik tizim, samarali baholash, obyektiv pozitsiya, analiz, sintez, solishtiruv, abstraktlash, umumlashtiruv, konkretizatsiya, sistematzatsiya, klassifikatsiyalash.*


Ключевые слова: *аналитическое мышление, педагогическая стратегия, тактика, дидактическая система, эффективная оценка, объективная позиция, анализ, синтез, сравнение, абстрагирование, обобщение, конкретизация, систематизация, классификация*

Keywords: *analytical thinking, pedagogical strategy, tactics, didactic system, effective assessment, objective position, analysis, synthesis, comparison, abstraction, generalization, concretization, systematization, classification*

Bugungi kunda yangi Oʻzbekistonda yoshlar siyosati mamlakatimizdagi yoshlarning porloq kelajagi uchun yurtboshimiz Sh.M. Mirziyoyev ham maʼnan, ham jismonan kuchli avlod boʻlishimiz uchun barcha shart sharoitlarni yaratib bermoqdalar. “Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson boʻlib kamolga yetishi bilan bogʻliq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning oʻz salohiyatini namoyon qilish uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat” - Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida soʻzlagan nutqida ushbu fikrlarni bayon etganliklari fikrimizning isbotidir.[1]

Chet tillarini oʻqitish jarayonida talabalarda analitik tafakkurni rivojlantirish asosida talaba oʻzining qobiliyatini baholash, yutuqlarni tahlil etish, shuningdek, fanga doir kompetentlik darajasini oshirishga taʼsir koʻrsatadigan taʼlim natijalarini prognozlash imkoniyatiga erishadi. Talabalar bilan ishlash mobaynida pedagog tomonidan belgilanadigan analitik fikrlash quyidagi muhim xususiyatlarga ega: u pedagogik voqelikni obyektiv ijtimoiy baholashni, pedagogik muammoni optimal hal qilish uchun pedagogik strategiya va taktikalar haqidagi maʼlumotlarni ilmiy baholashni, tahlil va sintezning ustunligi asosida didaktik tizimda uni amalga oshirish usullari, vositalari va usullarini samarali baholash orqali talabalarda analitik fikrlash qobiliyatini shakllantiradi. Analitik fikrlashni rivojlantirishning nazariy modeli - bu talabaning koʻp darajali mezonlar, strategik yoʻnalishlar, individual yoʻnaltirilgan pedagogik shakllar, aqliy faoliyatni faollashtirish usullari va vositalari toʻplamini ongli ravishda qabul qilish asosida oʻrganishdagi obyektiv pozitsiyadan subyektiv pozitsiyaga oʻtishni taʼminlaydigan pedagogik tizim orqali amalga oshiriladi.[2]

Psixologiyada tafakkur shaxsning voqelikni uning muhim va murakkab aloqalari va munosabatlaridagi vositachilik va umumlashtirilgan aks ettirishidan iborat bo'lgan aqliy bilish jarayoni sifatida ta'riflanadi. U ilgari olingan bilim va tajribadan foydalanishga asoslangan voqelikni bilishni ifodalashini A.O. Kosheleva o'zining ilmiy ishlarida bayon etgan.[3]



1-chizma.

Analitik tafakkur 1-chizmada tafakkur bosqichlari orqali analiz, sintez, solishtiruv, abstraktlash, umumlashtiruv, konkretizatsiya, sistematizatsiya, klassifikatsiyalash orqali amalga oshiriladi. Tushuncha, hukm va xulosa analitik tafakkur shakllarining visual-majoziy hamda visual-mantiqiy holatlarda shakllantirish mumkin.

Horijiy tillarni o'qitish jarayonida analitik o'qishni to'g'ri tashkillashtirish matnda aks etgan axborotni imkon boricha to'la va aniq tushinish hamda unga tanqidiy yondashishga namoyon bo'ladigan analitik tafakkur qilishni o'rgatishga qaratilgan bo'ladi. Ingliz yoki boshqa chat tillaridagi analitik o'qish talabalarda kommunikativ kompetensiyani shakllantiribgina qolmay, uni takomillashtiradi va ularda mavjud bo'lgan barcha nazariy bilimlarni faollashtiradi.

XIX-XX asrlarda yashagan olim K.D. Ushinskiy analitik fikrlash jarayonida taqqoslash quyidagilarni ta'kidlagan: "Agar siz tabiatni bir narsasini ravshan tushunib olishni istasangiz, uning o'zida juda uzoq bo'lgan narsalar bilan o'xshashligini topingiz Ana shunda siz shu narsaning eng muhim belgilarini payqab olasiz, demak shu narsaning eng muhim belgilarini payqab olasiz, demak shu narsani tushunib olasiz".

[4]

Talabalarda analitik tafakkur yuritish qobiliyatini quyidagi zakovatni o‘stiruvchi mashg‘ulotlar bilan muntazam shug‘ullanish orqali qaror toptirish mumkinligini ta’kidlaydi: ingliz yoki boshqa chet tillaridagi detektiv, fantaziya, falsafiy kitoblar, mantiqiy jumboqlarni yechish; krossvord, skanvord, rebus kabi boshqotirmalar ustida ishlash, kundalik axborotlarni, voqea-hodisalarni tahlil qilib boorish; har kuni yangi bir narsani bilib olishga intilish; turli intellektual bahs-munozaralarda qatnashish; atrof-olam haqida tafakkur yuritish; fikrlash xaritasini yaratish, fikr va xulosalarni yozib boorish; fikr-xulosalarning muqobil variantlarini yaratish; muammoli vaziyatlarni modellashtirish va hal etish.

Xulosa qilib aytganada, chet tillarni o‘qitishda analitik tafakkurni rivojlantirish talabalarning bilim olish qobiliyatini oshiradi, ularni mustaqil fikrlashga o‘rgatadi va kelajakda muvaffaqiyatli shaxs bo‘lib yetishishlariga yordam beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. <https://strategy.uz> “Taraqqiyot strategiyasi electron bazsi”
2. Иракова О.В. Формирование аналитического мышления у студентов педагогического вуза: На примере изучения математики: дис. ... канд. пед. наук: 13.00.06. – М., 2003. – 174 с.
3. Кошелева А. О., Лукьянчиков Э.Е., Шевченко О.И. Формирование профессионального интереса будущих специалистов к исследовательской деятельности// Психология образования в поликультурном пространстве. 2011. № 13. С. 114-118.
4. Ельницкий К. К. Д. Ушинский: его жизнь, деятельность и педагогические труды из публичной лекции / К. Ельницкий. — Санкт-Петербург: Изд-во Д. Д. Полубояринова, 1903